

## USMON YUSUPOV – DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI

**Kalonxonov Maruf Sirojiddinovich**

*Yangiyo'l shahar 1-son kasb-hunar maktabi direktori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Usmon Yusupovning hayoti, davlat rahbari sifatida olib borgan faoliyati va davlatimiz tarixida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Usmon Yusupov o'zbek xalqining orasidan yetishib chiqqan davlat va jamoat arbobi, buyuk tashkilotchi, haqiqiy xalq farzandi, sovet davri tarixida muhim rol o'ynagan rahbarlardan biri. U eng og'ir damlarda O'zbekistonni boshqargan davlat arbobidir. Usmon Yusupovning hayoti va olib borgan faoliyatini o'rganish, xalqimizni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *Usmon Yusupov, Ikkinci jahon urushi, front, davlat rahbari, jamoat arbobi.*

XX asrda o'zbek xalqining orasidan yetishib chiqqan davlat va jamoat arbobi, buyuk tashkilotchi, haqiqiy xalq farzandi, sovet davri tarixida muhim rol o'ynagan rahbarlardan biri Usmon Yusupovdir. Uning Respublikaga rahbarlik qilgan yillari juda ziddiyatl bo'lib, nafaqat O'zbekistonda, balki butun SSSR da ham og'ir kechdi. Albatta, Usmon Yusupov o'z davrining, sovet tuzumi kishisi edi. Ammo undagi rahbarlik va tashabbuskorlik xalqning dardini tushuna olishi, vatanparvarlik va insonparvarlik jihatlarining bir insonda mujassam bo'lishi uning siyosiy shaxs bo'lib yetishishiga imkon berdi.

Taniqli o'zbek xalqining otashqalb farzandi Usmon Yusupov hozirgi Farg'onaviyatinining Kaptarxona qishlog'ida 1900-yil 1-martda kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. U eski maktabda tahsil oldi va yetti-sakkiz yoshidan batraklik qildi. Usmon paxta zavodida, paxtakor-dehqon, ishchi va xizmatchilar bilan tanishdi. U mehnat va bilimga chanqoqligidan kunduzi ishlab, kechalari savodli ishchilar yordamida o'qish va yozishni o'rgandi. Usmon savodini oshira borib, rus tilini o'rganib, ishchilar orasida hurmat qozona boshladи.

Garchan, yetti yoshligidan otasi bilan boylar eshigida batraklik qilgan Usmon aka eng og'ir mehnatni paxta tozalash zavodida, ertadan kechgacha chang yutib, qora terga botib 100 kilogramlik paxta qoplarni ko'tarib, mehnat mashaqqatlarini shu yerda tatib ko'rdi.

Ekspluatator-xo'jayinlarning shafqatsizligi-yu boshliqlarning jafokash dehqonlardan paxtani ikkinchi navga qabul qilib, birinchi navga o'tkazgani yoki ishchilarning ish haqiga xiyonat qilganlarini ko'rgan Usmon aka har doim shunday yashab bo'lmasligini, shuning uchun o'qib, bilim olib, kurashish lozimligini tushundi. Natijada zavod kasaba uyushmalarining faollaridan biriga aylandi.

Usmon Yusupovning tap-tortmay, sira ikkilanmay qat'iy qarorga kelishi ko'pchilikni hayratga solardi, keyinchalik esa bunga "uning o'ziga xos iste'dodi" deb qaraladigan bo'ldi. Unda kelajakni oldindan ko'ra oladigan tug'ma tashkilotchining iste'dodi mayjud edi.

U 1916-yilda hozirgi Yangiyo‘l tumanidagi paxta tozalash zavodida oddiy ishchi sifatida mehnat faoliyatini davom ettirgan. Uning siyosiy faoliyati 1923-yildan boshlangan. Usmon 20 yoshli singlisi Nazira bilan 1924- yili partiya safiga kirgan. U 1923-1927-yillarda avval Yangiyo‘l binokorlar kasaba uyushmasining raisi muovini, so‘ng uyushmaning raisi lavozimida ishladi. 1929- yilda O‘zbekiston kompartiyasi markaziy qo‘mitasi kotiblaridan biri, 1931-1934-yillarda O‘rta Osiyo kasaba uyushmalari byurosining raisi, 1936-yilda O‘zbekiston Pespublikasi oziq-ovqat vaziri, 1937-yildan O‘zbekiston kompartiyasi markaziy qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimlarida faoliyat yuritdi.

1937-yilda ko‘plab davlat va partiya rahbarlarining qatag‘on qilinishi jamiyatda parokandalik va tushkunlik kayfiyatini shakllantirdi. Mana shunday qiyin bir vaziyatda Usmon Yusupovga og‘ir vazifalar yuklandi. Usmon Yusupovning siyosiy faoliyatiga baho berishda masalaning ikki jihatiga e’tibor berish kerak. Birinchidan, Usmon Yusupov Respublika rahbari bo‘lib ishlagan yillarida uning tashabbusi orqali O‘zbekistonda xalq hashari yo‘li bilan yirik suv inshootlari bunyod etildi. Rahbar sifatida dehqonlarning tashabbusini ma’qullab, aholining suv muammosini yechish uchun birlashtirdi. 1939-yilda 270 km uzunlikdagi Katta Farg‘ona kanalining 45 kunda hashar yo‘li bilan qurib bitkazilishi xalqdagi mehnat tashabbuskorligini rivojlantirdi. Bundan tashqari Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishi, Rudasoy va Kosonsoy suv omborlari, Farhod GES qurilishi bu davrning eng yirik girotexnik inshootlari qurilishiga bosh qosh bo‘ldi.

Usmon Yusupov o‘zining kuchli siyosatchi va irodali rahbarligini Ikkinchijiahon urushi yillarida ham namoyon qildi. Ma’lumki, murakkab favqulodda vaziyatlarda insonning irodasi, ma’naviy fazilatlarigina emas, balki g‘oyaviyligi, e’tiqodi, samimiyyati ham sinaladi. Urushning dastlabki yillari Rossiya, Ukraina va Belarussiyaning qator viloyatlaridan O‘zbekistonga urush tufayli ko‘plab otanonasidan ajralgan 250 mingdan ziyod bola, 270 ta yirik zavod, 700 ga yaqin ilmiy muassasa, oliy o‘quv yurti, badiiy jamoalar ko‘chirib keltirildi va bularga mahalliy rahbar xodimlar va aholining munosabati yaxshi bo‘ldi. Qisqa fursatda har bir korxona uchun ishlab chiqarish maydoni topib, uskunalarni o‘rnatib, front uchun mahsulot tayyorlashni yo‘lga qo‘yish oson kechmadi. Jang bo‘layotgan mintaqalardan ko‘chirib keltirilayotgan bolalarga, ishchilarga, ilmiy-texnik xodimlarga, fan, adabiyot, san’at arboblariga va ularning oilalariga boshpana topish, mehnat va ijod qilish uchun shart-sharoit yaratish yanada murakkab kechdi. Bu masalalar O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mita byurosida muhokama qilinganda, barcha kishilar respublikaga vaqtincha kelayotganligi va ularni mehmondo‘slik bilan kutib olish kerakligi ta’kidlandi. Faqat ayrim kishilargina ularni turar-joy, oziq-ovqat yetishmasligi, boshqa imkoniyatlar ham cheklanganligi haqida gapirishdi. Usmon Yusupov ko‘chirib keltirilayotganlarning hammasiga yordam berish kerakligini aytди. Shundan keyin evakuatsiya qilinganlarni qabul etish bo‘yicha bir nechta komissiya tuzildi.

O‘zbekiston aholisi kelayotganlarga samimiyy munosabat bildirdi. Ularni o‘z tug‘ishganlariday qabul qilib, boshpana, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar berishdi.

O‘zbekistondagi barcha sanoat korxonalari front ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan qilib qayta jihozlandi. Bir necha oy mobaynida butun O‘zbekiston frontga oddiy miltiq o‘qidan tortib, harbiy samalyotgacha yetkazib beradigan harbiy mintaqaga aylantirildi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechakning asosiy qismlari harbiy askarlarga yuborildi. O‘zbekiston mehnatkashlari o‘z vatanparvarlik burchlarini ana shunday bajarib, dushman ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘z munosib hissasini qo‘sishdi. Tabiiyki, bu ishlarni Usmon Yusupov rahbarligidagi O‘zbekiston hukumati tashkil etdi va rahnamolik qildi. Ikkinchidan, Usmon Yusupov o‘z rahbarlik faoliyatida ba’zi bir kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yan. U 1937-1939-yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan ommaviy qatag‘onlarda Markaz farmoyishlarini bajarishga majbur bo‘lgan. Biroq u SSSR davlat rahbariga xat yozib, qatag‘onlarni kamaytirishni so‘ragan. Usmon Yusupov rahbarlik faoliyati davrida kommunistik g‘oyaga qattiq ishonib, g‘oyaviy qarashlarda ushbu mafkura bilan ishlagan. Usmon Yusupov o‘z siyosiy faoliyati davrida imkoniyat doirasida O‘zbekiston xalqi manfaatlarini himoya qilishga intilgan. Masalan, urush yillarida o‘zbek xalqini ocharchilik balosidan saqlab qolish uchun don ekinlari maydonini paxta dalalari hisobidan kengaytirganligi uchun O‘zbekiston SSR XKS raisi Abdujabbor Abdurahmonov bilan birgalikda 1943-yil qishloq xo‘jaligi yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishda I.V. Stalin tomonidan qattiq xayfsan olgan.

Usmon Yusupov, vujudga kelgan har-bir qulay sharoitdan oqilona, o‘z vaqtida foydalanish qobiliyati borligi tufayli, markazdan shaxsan Stalindan ulkan inshooatlarni: Farg‘ona kanalini, Bekobod metallurgiya kombinatini, Chorjo‘y—Qo‘ng‘irot temir yo‘lini qurishga ruxsatni olishga erishgan.

Mashhur Chorjo‘y ko‘prigidan Amudaryo bo‘ylab qumlarni kesib o‘tib Orolgacha boradigan temir yo‘l juda ham zarur edi. Yusupov qulay sharoitdan foydalanib bu to‘g‘rida Stalining esiga soldi. Nihoyat mana 1947-yilning yozida orzusi ro‘yobga chiqdi: sobiq SSSR ministrlar Sovetining Chorjo‘y –Toshsoqqa o‘rtasida temir yo‘l liniyasi qurish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Butun Amudaryo o‘lkasi bu temir yo‘lni ko‘rishni allaqachonlardan beri orzu qilardi. Mana, nihoyat yuz ming kishi otlar, aravalari, ketmonlar, cho‘kgichlar bilan ishga chiqdilar. Turkman kolxozlari tuyalar yubordilar. Qirq kun ichida Chorjo‘ydan Xozoraspacha polotnoni ko‘tarib bo‘lindi. Bu besh million kubometr tuproq ag‘darish demak edi! Bu yana bitta jasorat edi. Avlodlar temir yo‘l haqida orzu qilgan edilar, orzular amalga oshirildi. 1948-yilda shaxsan Usmon Yusupovning tashabbusi bilan Xorazm va Qoraqalpog‘istonni O‘zbekistonning boshqa viloyatlari bilan bog‘lovchi, iqtisodni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga molik bo‘lgan Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurildi.

Usmon Yusupov rahbarligida 1950-yillarda Qashqadaryoga Zarafshon suvini keltiruvchi qadimiy Eski Angor kanali tiklandi, juda katta suv omborlari: besh yuz milion kubometr hajmdagi Chimqo‘rg‘on, 280 million kubometr suv sig‘adigan Pachkamar inshoati qurildi. 80 ming hektar yerga hayot baxsh etildi.

Usmon Yusupov Ulug‘ Vatan urushida mardlik va jasorat ko‘rsatgan o‘zbeklardan 300 dan ortiq Ittifoq Qahramonlari bilan faxrlanib, ularning barchasini

shaxsan tanib g‘amxo‘rlik qilib turganlar. Jumladan, birinchi o‘zbek Ittifoq qahramoni Qo‘chqor Turdiyev, Mamadali Topboldiyev, toshkentlik Abdulla Qurbonov, Yangiyo‘llik Abdulla Qurbonov, Ubay Musayev va boshqalar. Ayniqsa, Germaniyada tashkil etilgan “O‘zbek legioni” ning fosh etilishi va yo‘q qilinishida hal qiluvchi rol o‘ynagan toshkentlik razvedkachi Ittifoq qahramoni Abdulla Qurbonov bilan juda yaqin do‘st bo‘lgan. U bilan tez-tez uchrashib-suhbatlashib, “Sen mening haqiqiy ukamsan” deb yurganlar.

Usmon Yusupov paxta hosilining yig‘ib-terib olishni mexanizatsiyalashtirish muammolarini hal qilishga katta hissa qo‘sghan. Natijada, 1947-yilda O‘zbekistonning paxta dalalarida SXM-48 paxta terish mashinalari paydo bo‘lgan.

Usmon Yusupov yer-suv, rizqi-ro‘zimiz deb, astoydil mehnat qilgan dehqon-u bog‘bon, suvchi va mexanizatorlarni juda hurmat qilgan. Ular bilan samimiy uzoq suhbat qurib, diqqat bilan tinglab, gurunglashishni yaxshi ko‘rganlar.

Usmon Yusupov boshqa rahbarlarda hech uchramaydigan alohida hislatlar sohibi bo‘lgan. Birorta xo‘jalikning ishi bilan tanishmoqchi bo‘lganida, hech kimga aytmay xabar ham qilmay, o‘sha jamoa xo‘jaligiga bir km qolganida mashinadan tushib, haydovchiga bir-ikki soatdan keyin shu xo‘jalik markaziga borishini tayinlab, piyoda paxta dalalarini yoki bog‘larini ko‘zdan kechirib chiqib, so‘ngra xo‘jalik markaziga qarab yo‘l olgan. Xo‘jalik rahbari bilan suhbat chog‘ida o‘sha xo‘jalik dalasidagi ma‘lumotlarni aytganida taajjubga tushib, esankirab qolgan rahbarlar ko‘p bo‘lgan.

Usmon Yusupov 1950-1953-yillarda Moskvada Ittifoq paxtachilik Ministri, 1953-1954-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ministrler Sovetining raisi, 1956-1960-yillarda Mirzacho‘lning Bayaut-4 sovxoziining rahbari, 1962-yili bog‘dorchilik-uzumchilik yo‘nalishidagi “Yangiyo‘l sovxoziining rahbari”, 1963-1966-yillarda “Xalqobod” agrosanoat birlashmasining rahbari lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Usmon Yusupov buyuk xizmatlari uchun o‘z davrining orden va medallari, ya’ni ikki marta “Mehnat qizil bayroq” ordeni, birinchi darajali “Ulug‘ Vatan urushi” ordeni, olti marta “Lenin” ordeni bilan taqdirlangan.

Davlat va siyosat arbobi Nuriddin Muhiddinov o‘z xotiralarida Usmon Yusupov faoliyati haqida shunday deydi: “Men ham Usmon Yusupovni yaxshi bilar edim. Menga partiya ishiga yo‘llanma bergen ham shu kishi bo‘ladi. Biz u kishi bilan uzoq vaqt birga ishladik. Shu boisdan uning hayoti va faoliyati haqida bir-ikki og‘iz so‘z aytish ham qarz, ham farz bo‘lgan insoniy burchim, deb bilaman. Men Usmon Yusupov bilan birinchi marta 1939-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan se‘zdda so‘zlashganman. U majlislar orasida viloyat rahbarlari bilan suhbatlashdi. Men o‘sha payt Moskvadagi savdo institutini tamomlab, Buxoro viloyat matbuot uyushmasining kadrlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari hamda o‘quv kombinati mudiri bo‘lib ishlardim. Usmon Yusupov yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklariga qaramay tariximizning eng murakkab, og‘ir davrida respublikamizni halollik bilan boshqargan, el-yurt tinchligi va farovonligi uchun bor kuchi va g‘ayratini sarflagan, o‘zidan o‘nlab shogirdlar qoldirgan chinakam ulug‘ inson edi. Bunday kishilarning hayot yo‘li esa o‘z xalqi tarixinining bir qismi sanaladi va u yoshlarimiz uchun ibrat bo‘lishi kerak. Shaxsan men Usmon akaga shogird bo‘lish, u bilan yonma-yon ishslash baxtiga musharraf bo‘lganimdan faxrlanaman. Bir gal uzoq muddat davom etgan chet el

sayohatidan qaytgach, Toshkentga kelib, O'lmas bilan Xalqobodga bordim. Usmon Yusupov oilasi bilan yashagan joydagi uy-muzeyda bo'lib, eksponatlarini ko'zdan kechirdim. Esdalik yozuvlari daftariga esa quyidagi so'zlarni bitdim: «O'zbek xalqining munosib farzandi, haqiqiy communist, vatanparvar, katta og'amiz va ustozimiz Usmon Yusupovning porloq xotirasi hamisha yodimizdadir».

Usmon Yusupovning urushdagi buyuk ishlarini taniqli yozuvchi Konstantin Simonov o'z asarlarida, O'zbekiston va O'rta Osiyoning boks bo'yicha championi, harbiy razvedchik, yozuvchi, hozirgacha 3 marta qayta nashr etilgan «Generallisimus» kitobining muallifi, Sovet Ittifoqi Qahramoni Vladimir Karpovlar o'z esdaliklarida alohida mehr bilan qayd etgan. SSSR Yozuvchilar soyuzi kotibi urushdagi jangovar xizmatlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga ega bo'lgan Vladimir Karpov shunday eslaydi: “Usmon Yusupov mening butun hayotimda esda qoladigan mana bu fikrni aytgan edi, “Qimmatli Volodya. Shuni bilginki, sen olgan bu mukofot, sening ko'kragingda porlab turgan bu yulduz hayotingda yordam beradi. Sen o'sasan, ish va lavozim bo'yicha olg'a qarab borasan. O'sha murakkab davrda har bir siyosiy rahbarga ig'vo bilan uni obro'sizlantirish unchalik qiyin ish emas edi. Usmon Yusupovni urush vaqtida sotqinlik va vatan dushmanlarini yashirganlikda, urushdan so'ng esa urushdan oldingi vaqtida amalga oshirilgan qatag'onlarda ayblashgan. Ish shu darajaga yetib bordiki, 1946- yil anonim ariza natijasida “Yusupov ishi” qo'zg'atilgan. Bu ish bilan Siyosiy byuro a'zolari: V.M. Molotov, G.M. Malenkov va MK sekretari N.S. Patolichevlar shug'ullanishgan va uning pok nomini himoya qilish ishlari bilan shug'ullanganlar”.

Usmon Yusupov Toshkentda 1966-yil 7-may kuni vafot etdi. U Toshkentdag'i Chig'atoy qabristoniga dafn etildi. Qabri ustiga marmar byusti o'rnatilgan.

O'zbek xalqining sodiq farzandiga bo'lgan hurmat ehtiromning izhori sifatida Katta Farg'ona kanaliga, Yangiyo'l tumanidagi “Xalqobod” nomli agrosanoat birlashmasiga, Chinoz tumanining markazidagi madaniyat va istirohat bog'iga, Farg'ona viloyatidagi qishloq, Respublikadagi bir necha maktab, ko'cha, shirkat xo'jaligiga Usmon Yusupov nomi berilgan. Usmon Yusupovning partiya qurilishi va masalalariga oid 3 tomlı kitobi nashr etilgan. U haqida hujjatli va badiiy filmlar yaratilgan. Yangiyo'l shahrida uning haykali bor va hozirgi kunda uy muzeyi faoliyat yuritmoqda. Usmon Yusupov uy muzeyi Yangiyo'l shahrining markazida Bog' ko'chasi 6-uyda joylashgan. Uy myzeyi eksponentining asosiy fondida 3519 ta, ilmiy yordamchi fondida 293 ta, ekspozitsiya zalida 218 ta, memorial kompleksida 645 taga yetkazildi.

O'zbek adibi G'afur G'ulom Usmon Yusupovning dafn marosimida quyidagilarni aytди: “U ikkinchi jahon urushi yillarda xalqning vatanparvarlik ruhini oshirishda jonbozlik ko'rsatdi, frontni kerakli yaroq va mahsulotlar bilan ta'minlashda xalq qudratini uyshtirdi, front orqasining mustahkam bo'lishini ta'minlashda ishtirok qildi, urush oqibatida xonavayron bo'lganlarga mehribonlik qildi, yetimlar boshini siladi. Mehribonimiz Usmon Yusupov, ayniqsa, san'at va adabiyotni sevardi va san'at-adabiyot ahlining har biriga g'amxo'rlik qilar edi. Xususan, urush bo'lib turgan og'ir yillarda bizga ko'rsatgan mehr-u muhabbatni hech qachon yodimizdan aslo chiqmaydi!»



Xalqimiz orasidan davlat arboblari, mehnat qahramonlari, fan, san'at va adabiyot arboblari yetishib chiqdi. Usmon Yusupov ham ana shunday ulug' zotlardan biridir. Usmon Yusupov biz uchun buyuk tarix. Mustaqil O'zbekistonimizning hozirgi salohiyati, madaniyati, qudrati, iqtisodiyotining poydevori Usmon Yusupovning bevosita ishtiroki, mehnati va tashabbusi bilan yaratilgan. O'zbek xalqi juda kata qurbanlar evaziga o'z mustaqilligiga erishgan hozirgi davrda Usmon Yusupovdek o'z xalqi farovonligi yo'lida astoydil kurashgan fidokor, tug'ma talant sohibi bo'lgan qahramon farzandlarini hamisha yodda saqlab kelmoqda.

Xullas, Usmon Yusupov eng og'ir damlarda O'zbekistonni boshqargan davlat arbobidir. Uning hayoti va olib borgan faoliyatini o'rganish, xalqimizni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.